



# Tashqi savdo

2017 yil  
yanvar-oktabr

## TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT

Respublikada tashqi savdo aylanmasi 2017 yil yanvar-oktabr oylarida 22,1 mlrd. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 11,3 mlrd. AQSh dollarini va import 10,8 mlrd. AQSh dollarini tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldosi 535,2 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Ukraina, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy xamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 28,9 foizni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya, Afg'oniston, Braziliya, Xindiston, Eron, Latviya, Frantsiya, Litva, AQSh, Italiya davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 41,5 foizni tashkil qildi.

Oxirgi yillarda Respublikaning eksport tarkibida qariyb barcha tovarlar va xizmatlar guruhlariga bo'yicha o'sish kuzatilmoqda.



Transformator va akkumulyatorlar eksportining o'tgan yilning shu davriga nisbatan 58,0 foizga, kabelli

sim mahsulotlarining 23,6 foizga, qozonlar, uskunalar va mexanik asboblarning 24,0 foizga o'sishi, mashina va asbob-uskunalar 58,2 foizga o'sishiga olib keldi.

Alkogolli va alkogolsiz ichimliklar eksportining o'tgan yilning shu davriga nisbatan 63,6 foizga, bug'doy - 33,2 foizga va meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash 13,0 foizga o'sishi, oziq-ovqat mahsulotlari hajmini 22,7 foizga o'sishiga olib keldi.

Qora va rangli metallarni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 23,5 foizga o'sishiga, rux va undan tayyorlangan mahsulotlarni 50,1 foizga, alyuminiy va undan tayyorlangan mahsulotlarni 72,7 foizga, mis va undan tayyorlangan mahsulotlarni 25,8 foizga o'sishi sabab bo'ldi.

Import tarkibining umumiy xajmidan 38,4 foizni mashina va asbob-uskunalar va 17,1 foizni kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar tashkil qiladi.



## Xizmatlar eksporti



*Eksport tarkibining umumiy xajmidan 25,4 foizni xizmatlar tashkil qiladi, bunda transport xizmatlari 11,9 foizni va safarlar 11,3 foizni tashkil qiladi.*




## TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT

Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport xajmi 563,4 mln. AQSh dollarini tashkil qildi, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 13,0 foizga oshdi. Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport xajmida 37,7 foizni meva va rezavorlar (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12,6 foizga o'sdi), 29,1 foizni sabzavotlar (18,6 foizga), 22,5 foizni uzum (8,2 foizga) va 4,3 foizni meva va sabzavotlarni qayta ishlash (69,1 foizga) tashkil qiladi.

Tashqi savdo aylanmasida asosiy xamkor davlatlar Qozog'iston (umumiy hajmdan 48,9 foiz), Rossiya (19,2 foiz), Afg'oniston (5,5 foiz), Xitoy (5,2 foiz), Qirg'iziston (4,8 foiz), Turkiya (4,7 foiz) va Hindiston (1,8 foiz) hisoblanadi.

### Yirik hamkor davlatlar bo'yicha meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlashning eksportdagi ulushi, foizda



*Eksport tarkibining umumiy xajmidan 5,0 foizni meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash tashkil qiladi*



### To'qimachilik mahsulotlari eksporti

To'qimachilik mahsulotlari eksport xajmi 927,4 mln. AQSh dollarini tashkil qildi yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 24,7 foizga oshdi. To'qimachilik mahsulotlari eksport xajmida 4,5 foizni paxta tolali ip (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 28,1 foizga o'sdi), 2,0 foizni tayyor trikotaj mahsulotlari (31,4 foizga) va 0,4 foizni paxta tolali ip gazlamalar (20,5 foizga) tashkil qiladi.



Davlat statistika qo'mitasi

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul:

Bo'lim boshlig'i J.Yuldashev

71) 230-80-44